

IMLO O'RGATISH METODLARI VA UNING SAMARADORLIGI

Sobirjonova Husniya Obidjon qizi

Andijon shahridagi Prezident maktabi o'qituvchisi.

Nuriddinova Nozima Obidjon qizi

A. Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti institutining 3-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17536113>

Annotatsiya. Ona tili va adabiy ta'lim jarayonida asosiy diqqat – e'tiborni o'quvchilarda so'z boyligini oshirish, ma'no nozikliklari, farq va o'xshashliklarini his qilish hamda anglab yetish, to'g'ri talaffuz qilish va bexato yozish, so'zlarni to'g'ri qo'llash, fikrni gap va matn tarzida to'g'ri ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratish zarur. Insonda tafakkur va til o'zaro chanbarchas bog'liq bo'lib, ijodiy va mustaqil fikrli, ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda ona tili va adabiy ta'lim usuli, shuningdek, vositalarining o'rni, ro'li beqiyos.

Ushbu maqolada imlo o'rgatish metodlari sifatini oshirishdagi muommolar va ularni hal qilish yo'llari hamda hozirgi kundagi o'quvchilarning savodxonlik darajasini yaxshilash yoritilgan. Shuningdek, ona tili va adabiy ta'limda o'quvchilarning imloviy xatolar ustida ishlash, an'anaviy ta'lim metodlaridan foydalanish, so'z boyligini oshirish, gap ustida ishlash, badiiy adabiyotlar o'qish malakasini rivojlantirish kabi masalalarni yoritishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: imlo, savodxonlik masalasi, innavatsion texnologiya.

SPELLING TEACHING METHODS AND ITS EFFECTIVENESS

Annotation. In the process of native language and literary education, the main attention should be paid to increasing students' vocabulary, feeling and understanding the subtleties of meaning, differences and similarities, forming the skills of correct pronunciation and error-free writing, correct use of words, and correct expression of thought in speech and text. Thinking and language in a person are inextricably linked, and the role and role of native language and literary education methods, as well as their tools, in raising a creative and independent-minded, spiritually mature person are incomparable.

This article discusses the problems of improving the quality of spelling teaching methods and ways to solve them, as well as improving the literacy level of current students. It is also dedicated to highlighting issues such as working on students' spelling errors in native language and literary education, using traditional teaching methods, increasing vocabulary, working on sentences, and developing reading skills in fiction.

Keywords: spelling, literacy issues, innovative technology.

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ И ЕЁ ЭФФЕКТИВНОСТЬ

Аннотация. В процессе обучения родному языку и литературе основное внимание следует уделять расширению словарного запаса учащихся, чувствованию и пониманию тонкостей смысла, различий и сходств, формированию навыков правильного произношения и безошибочного письма, правильного словоупотребления и грамотного выражения мыслей в речи и тексте. Мышление и язык в человеке неразрывно связаны, а роль методов обучения родному языку и литературе, а также их инструментов в воспитании творческой и самостоятельной, духовно зрелой личности несопоставима.

В данной статье рассматриваются проблемы повышения качества методики обучения орфографии и пути их решения, а также повышения уровня грамотности нынешних учащихся. Также освещаются такие вопросы, как работа над орфографическими ошибками учащихся в обучении родному языку и литературе, использование традиционных методов обучения, увеличение словарного запаса, работа над предложениями и развитие навыков чтения художественной литературы.

Ключевые слова: орфография, проблемы грамотности, инновационные технологии.

Kirish

Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim – tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash, ularning qobiliyat va iste'dodi, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.¹

Mustaqillikka erishganimizdan keyin o'zbek tilining leksik qatlamida misli ko'rilmagan o'zgarishlar bo'ldi: «eskirgan so'z» tamg'asi bosilgan ko'plab leksikonlar o'z lisoniy maqomiga ega bo'ldi, xalq tili bisotida qolib kelayotgan minglab so'zlar adabiy til sathida faollashdi, yangi so'zlar yasaldi, fan-texnika, tibbiyot, iqtisodiyot, huquq, sport va boshqa sohalarga oid ko'plab yangi so'zlar tilimizga kirib keldi. Ish yuritish o'zbek tiliga ko'chdi, atamashunoslik qo'mitasi tashkil etilib, turli sohalarga doir fanniy lug'atlar tayyorlandi.²

1989- yil 21- oktabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdagi sessiyasida o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi haqidagi Qonun qabul qilindi. Ona-vatanimizning mustaqillikka erishuvi esa uning jahondagi ilg'or davlatlar qatoriga qo'shilish, ular bilan ijtimoiy hayotning barcha sohalarida hamkorlikni mustahkamlashga bo'lgan ehtiyojini yana ham kuchaytirdi.

Shular zaminida 1993- yil 2- sentabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq XIII sessiyasida “Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida”gi Qonun qabul qilindi va imlo qoidalarini ishlab chiquvchi ishchi guruh tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995- yil 24- avgustdagi 339- son qarori bilan “O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini”ni tasdiqladi.

Asosiy qoidalar “Harflar imlosi”, “Asos va qo'shimchalar imlosi”, “Qo'shib yozish”, “Ajrati yozish”, “Chiziqcha bilan yozish”, “Bosh harflar imlosi” va “Ko'chirish qoidalarini” bo'limlaridagi 82 modda 7 bobdan tashkil topgan.³

¹ Mirziyoyev Sh. M. Ta'lim sohasini isloh qilish yuzasidan o'tkazgan yig'ilishidagi nutqidan

² O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori, - T.: Sharq NMK, 1997, 32-62- b.

³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori: O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida. –T., 1995, 24-avgust, 339-son.

1. Harflar imlosi
 - a) unlilar imlosi.
 - b) undoshlar imlosi.
2. Asos va qo`shimchalar imlosi.
3. Qo`shib yozish.
4. Chiziqcha bilan yozish.
5. Ajratib yozish
6. Bosh harflar imlosi.
7. Ko`chirish qoidalari.

Maqolaning maqsadi:

Ona tili va adabiy ta`lim jarayonida o`quvchilarning imloviy savodxonlik darajasining pastligi sabablarini aniqlash ularni bartaraf etish omillari, vositalari, yo`llari, usullarini ko`rsatish maqsad qilib qo'yilgan.

Maqolaning vazifasi sifatida quyidagilarni belgilab olindi:

1. Nazariy bilimlar berish asosida savodxonlikni oshirish masalasini yoritish.
2. O`quvchilarning so'z boyligini oshirish maqsadida lug'at ustida ishlash mashg'ulotlarini o'tkazish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish.
3. O`quvchilarning gap ustida ishlash, gap hamda matn tuzishdagi nutqiy mahoratini kengaytirish va shakllantirish yuzasidan ma'lumotlar berish.
4. O`quvchilarga imlo ko'nikmasini singdirishda yozma ishning barcha turlaridan unumli foydalanish, xatolar ustida muntazam ishlashni tashkil etish xususida ijobiy ko`rsatmalar berish.

Maqolaning predmeti: "Ta`lim to`g`risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta`lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash maqsadlarini ko`zda tutadi.

Tajriba va kuzatishlar shuni ko`rsatadiki, o`quvchilarning ko'pchilik qismi matnlarni mavzuga ko'ra farqlash, berilgan matnni yakka va jamoa bo'lib tuzilgan rejada qayta og`zaki va yozma bayon qilish, o'z fikrini orfoepik qoidalarga mos tarzda erkin ifodalay olish ko'nikma va malakalariga ega emas. Aksariyat ona tili va adabiyot o'qituvchilari bu nuqsonlarga befarqlik bilan qaraydilar. Shuning uchun ham bugungi kunda savodxonlik masalasi oqsamoqda. Shu ma'noda ona tili va adabiy ta'limda o`quvchilarning imloviy savodxonligini oshirish omillari, vositalari va usullari masalasi bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Asosiy qism

Imlo – ona tili ta'limining negizi sifatida

Komil inson tarbiyasida ona tili ta'limining ahamiyati katta bo'lib, ona tili nafaqat barcha fanlarni o'zlashtirishda, balki, umuman, jamiyatda insonlarning o'zaro aloqaga kirishuvida-muloqotning shakllanishida ham ahamiyatlidir. Chunki fan – inson faoliyatining o'ziga xos va muhim sohasi, ijtimoiy ongning muhim shakli. Fanning vazifasi- borliq, olam haqidagi ob'ektiv, xolis bilimlarni hosil qilish, ularni nazariy jihatdan to'plash va bir tizimga keltirishdir.⁴

⁴ Milliy g`oya: targ'ibot texnologiyalari va atamallari lug'ati.-T.: Akademiya, 2007, 280-b.

O'quvchilarning yozma ishlarida uchraydigan ayrim qo'pol xatolar: uslubiy, orfografik, punktuatsion xatolar ham amaliyot bilan nazariyaning o'rtasida tafovut borligini ko'rsatadi.

O'quvchi o'zbek tili grammatikasi, leksika va fonetikasi bo'yicha ma'lum bilim olishi bilan birga, muayyan amaliy malaka va ko'nikmalarga ham ega bo'lishlari lozim. Ona tili o'qitish to'rt maqsad asosida amalga oshiriladi. Bular amaliy maqsad, tarbiyaviy maqsad, ta'limiy maqsad, rivojlantiruvchi maqsad.

- amaliy maqsad: til imkoniyatlaridan mustaqil va erkin foydalanish, ko'nikma va malakalarini xosil qilish;

-ta'limiy maqsad: mantiqiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni shakllantirish;

-tarbiyaviy maqsad: ma'naviy, g'oyaviy, estetik tarbiya berish;

-rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchi shaxsini amaliy jixatdan rivojlantirish.

Ona tilidan dars beruvchi o'qituvchi haqiqiy ijodkor bo'lishi, ta'lim jarayonida o'quvchining mavzuni tinglash, anglash, erkin va mustaqil fikrlash, qiyoslash, farqlash, alohidaliklarga ajratish va tasnif qilishga yo naltirilgan faoliyatini rag'batlantirishi, o'z fikri, g'oyalarini o'zgalarga etkaza bilish ko'nikma va malakalarining shakllanishini nazorat qilishi, boshqarishi darkor. O'quv mashg'ulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda iashkil qilish ayni paytda o'qituvchilik faoliyatining bosh mezoni deb qaralmoqda.

Ona tili o'qitish mazmuni – fonetika, leksikologiya, grammatika (morfologiya va sintaksis), uslubiyat, to'g'ri talaffuz, to'g'ri yozish, so'z tanlash va gap tuzish; ijodiy fikrlash, fikrni to'g'ri, aniq ifodalash, ifodali o'qish (qiroat), matn ustida ishlash va matn yaratish faoliyatlarini qamrab oladi.

Ijodiy tafakkur sohibini, ya'ni o'sayotgan, rivojlanayotgan va taraqqiyot sari yuz tutayotgan mamlakatimiz uchun zarur bo'lgan, **ijodkor va mustaqil fikrlay oladigan shaxsni** tarbiyalab voyaga yetkazish ona tili ta'limi oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi.

Savodxonlik masalasi va unga qo'yilayotgan talablar

Azaldan savodxonlik masalasi dolzarb vazifalardan biri bo'lib, u o'quvchining bilimi, dunyoqarashi va intellektual saviyasini anglatib turgan. Shuning uchun o'zbek tili darslarida o'quvchilarda nafaqat bajarilgan ishning nazoratini olib borish, balki xatolarning mohiyatini anglash va ularni o'z vaqtida bartaraf etish ko'nikmasini shakllantirish ham maqsadga muvofiq.⁵

Buning uchun o'qituvchi har bir o'quvchi bilan individual shug'ullanishi, o'z ustida ishlashi, har bir yozma ishdan keyin o'quvchilarning xatolarini yozib borishi yaxshi samara beradi. O'qituvchi har bir o'quvchining qanday xatoga yo'l qo'yayotganligini aniqlash va ularni tasniflash uchun har bir yozma ishdan keyin uning tahliliga bag'ishlangan soatlarda o'quvchilarning xatolarini ko'rsatib, ularni bartaraf etib borishi kerak.

O'quvchilar xatoga yo'l qo'ygan so'zlar ustida ishlash jarayonida imlo lug'atlaridan foydalanishadi. Shu so'zlar ishtirokida matn tuzdirish esa xato yozilgan so'zlarning tog'ri variantini ularning yodida saqlanib qolishiga yordam beradi. Lug'at diktantlarda o'quvchilarning aksariyati xatoga yo'l qo'yayotgan so'zlar tanlanishiga e'tibor qaratish zarur.

⁵ Mo'minova O. Imlo xatolar ustida ishlash usullari. -T.,\ Til va adabiyot, 2015, 6- son, 15-b.

Yozma va ogʻzaki nutqni rivojlantirishning bu turi oʻquvchilarning soʻz boyligini oʻstirish hisoblanib, bunda lugʻat ustida quyidagicha ishlash mumkin:

1.Rebus. Ularni topish vaqtida oʻquvchilar mustaqil yoki oʻqituvchi koʻmagida tovushli tahlil oʻtkazib, soʻngra oʻsha soʻzlarning sintezini qilishadi. Bu usul qiyin soʻzlarning yozilishini yaxshi eslab qolinishiga yordam beradi.

2.Ilyustrativ rasm. soʻz maʼnosini yaxshi tushunish uchun yordam beradi.

3.Etimologik maʼlumotnoma, yaʼni soʻz maʼnosining kelib chiqish tarixi haqida maʼlumot berish. Masalan: Qarshi soʻzi moʻgʻulcha soʻz boʻlib, goʻrxona degan maʼnoni bildiradi. Qarshi viloyati boʻlib, Nasaf va Naxshab ham deyiladi.

4.Asosdosh soʻzlar asosning yozilishi yoki oʻzgarishini kuzatishga yordam beradi.

Masalan: gulchi, guldona, gulxona.

5.Sinonimik, antonimik va frazeologik munosabatlar. Sinonim, antonim, frazeologizmlar bilan ishlash oʻquvchilarning ularni nutqda oʻrinli qoʻllay bilish koʻnikmalarini hosil qiladi.

6.Amaliy materiallar - nutqda soʻzlarning vazifalarini kuzatishga yordam beradigan topishmoqlar, maqol va matallar, gaplar va matnlar.

Imlo oʻrgatish masalasi

Zamon bizdan faqat nazariy tushunchalar haqida maʼlumot berishni talab qilmaydi balki, maktab, litsey, kollejlarda ona tili oʻqitish oʻquvchilarga ixcham, ravon, chiroyli soʻzlashga va yozishga oʻrgatishni talab etmoqda.⁶ Tilshunos olim N.Maxmudov aytganidek, “Grammatik qoidalarini yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, darslikdagi mashqlarni ijodiy fikrlash malakasini yuzaga keltirishga qaratish maqsadga muvofiqdir”⁷. Ona tili darslarida imlo qoidalarini oʻrgatish samaradorligini oshirishda noʻanʼanaviy darslarning ahamiyati katta boʻlib, unda oʻquvchilarning bilim olishi majburiy emas, balki qiziqishlar asosida roʻy beradi.

Bugungi kun oʻqituvchisidan yangi original oʻqitish uslublarini joriy qilish, oʻquvchilarga grammatik, imlo, talaffuz qoidalarini puxta singdirish, ijodiy ishlarni, yozma nutqni mazmundor, rang-barang qilish, fikrni asosli va izchil bera olish, ijodiy yozma ishlar (matn tuzish, insho, bayon, referat, maqola) yoza olishda koʻnikma va malakalarni yoza olishda koʻnikma hamda malakarlarni singdirish kabi vazifalar talab qilinmoqda.⁸

Oʻquvchilarning toʻgʻri, xatosiz yozishga oʻrgatish va yoʻl qoʻyilgan xatolarni bartaraf etish uchun bir necha gapni orfografik jihatdan toʻla tahlil qilish kerak. Bu bilan oʻquvchilar soʻz maʼnosi va uning imlosini puxta oʻzlashtirib oladilar. Shu bilan birga quyidagilarga eʼtibor berish kerak: eng avvalo, oʻquvchilarni toʻgʻri talaffuz qilishga oʻrgatish, yaʼni, soʻz aytilganda tovushlarni aralashtirmay, tovush tushirib yoki orttirib talaffuz etmaslik. Masalan: kitob oʻrniga kitop, ruchka oʻrniga yuchka, maktab oʻrniga matab deyishga yoʻl qoʻymasligi joiz.⁹ Har bir darsda koʻpchilik uchun bir xil uchraydigan tipik xatolar doskada koʻrsatilishi lozim.

⁶ Yusupova SH. Noʻanʼanaviy dars- davr talabi, –T.: Andijon, 2002, 22-bet.

⁷ Mahmudov N. Taʼlim boʻgʻinlarida ona tili oʻqitish mazmunini yangilash muammolari, – T.: Qarshi, 1993, 5-bet.

⁸ Jalolova L. Yozma nutqni oʻstirish metodikasi, -Andijon., 2012.

⁹ Avliyov N. Zamonaviy taʼlim texnologiyalari, -T., 2001, 69- bet.

Ayrim o'quvchilar uchun tegishli xatolar o'sha o'quvchi bilan birgalikda amalga oshirish maqsadga muvofiq, agar o'quvchilar biror qoidani bilmasligi natijasida xatoga yo'l qo'ygani bo'lsa, ana shu qoidani takrorlash bilan tushuntirish kerak. Yana shuni aytish mumkinki, o'quvchilar yozuvida xatolar bo'lmasligi uchun lug'at ishiga, ta'limiy harakterdagi yozma ishlarga ko'proq o'rin berish zarur. Imlosi qiyin so'zlar jadvali tuzilib, sinf xonasiga o'quvchilarga ko'rinarli qilib osib qo'yilishi va uni vaqti-vaqti bilan almashtirib turilishi yaxshi natija beradi.¹⁰ Imlo qoidalarini o'quvchilarga yanada tushunarli bo'lishi uchun darsda yana bir necha usullarni qo'llash yaxshi samara beradi. Masalan, "Bu bizniki" yoki "u meniki" o'yini. Bu o'yin ma'lum mavzular o'tilgach, umumlashtirish, takrorlash, mustaxkamlash darslarida o'tkazilsa, maqsadga muvofiq, bo'ladi. Bunda o'quvchilarni ma'lum guruxlarga ajratish asosida ularga topshiriqlar beriladi. Masalan, "Qo'shimchalar" mavzusi o'tib bo'lingach, o'quvchilar uch guruhga ajratilishi va ularning har biriga mos ravishda topshiriqni bajarish tayinlanishi mumkin. 1-guruh "so'z yasovchilar", 2-guruh "shakl xosil qiluvchilar", 3- guruh "so'z o'zgartiruvchilar".

Doskaga 30-40 ta qo'shimcha yoziladi yoki og'zaki o'qib beriladi. O'quvchilar o'zlariga tegishli qo'shimchalarni daftarlariga yozib boradilar. So'ng o'sha qo'shimchalarga misol va izox beradilar. Bu o'yin boshqa mavzulardan so'ng xam o'tkazilishi mumkin. Har qanday mavzuda o'quvchilar o'zlariga tegishli vazifani qanday uddalashlariga qarab ularning bilimlari baxolanadi.

Fonetika bo'limini tugatgandan so'ng quyidagicha "bu bizniki" o'yin - mashqini o'tkazish mumkin: o'quvchilar uch guruhga bo'linadilar. 1-guruh (shartli ravishda i eshitilsa xam e yoziladigan tovushli so'zlar, 2-guruh alifbo tartibidagi so'zlar, 3-guruh t eshitilsa xam d yoziladigan, p eshitilsa xam b yoziladigan so'zlar qo'shimcha doskada quyidagi so'zlar aralashtirib yozilgan bo'ladi:

Teatr, direktor, obzor, sovxoz, agronom, mikrofon, g'or, soqol, matbuot, rol, kategoriya, investisiya, atelye, er, kel, et, javob, sot, kitob, ket, elim, tort, xisob, zavod, davlat, telefon, baland, muftalo, savod, daromad, xushomad, ibtido, istexkom, zexn, savob, dard, talab, olib, otib, chexra, oid, jamoa, mexr, dud.

1-guruh o'quvchilari - "bilimdonlar" quyidagi so'zlarni, ya'ni a eshitilsa ham o yoziladigan so'zlarni ajratib "o'ziniki" ni yozadilar: sovxoz, agronom, mikrofon, kolxoz.

2-guruh o'quvchilari - "chaqqonlar" doskadagi so'zlarni alifbo tartibida yozadilar: agronom, atelye, davlat, dard, dud, direktor, javob, jamoat, zavod, zexn, ip, istexkom, kel, ket, kech, mexr, oid, olib, otib, savob, sof, talab, teatr, telefon, tort, chexra, xisob.

3-guruh o'quvchilari- "zukkolar" bo'lib, ular doskadagi so'zlardan faqat t eshitilsa ham d yoziladigan, p eshitilsa ham b yoziladigan so'zlarni, ya'ni "o'ziniki"ni ajratib yozadilar:

Savob, baland, muftalo, savod, daromad, xushomad, ibtido, javob, kitob, xisob, zavod, dard, talab, olib, otib.

Prezidentimiz aytganidek: "Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak, ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir".

¹⁰ Doniyorov B. O'zbek adabiy tili orfoepiyasi va orfografiyasining ayrim dolzarb muommolari. || Til va adabiyot, 2014, 11-son,9-b

O'yin-mashqni o'tkazib bo'lgandan so'ng esa, tovushlarning qachon? qanday? aytilishi haqidagi qoidalar eslanadi va o'yin mashqini bajarishdagi yo'l qo'yilgan xatolar aniqlanadi va u qoidaga muvofiq izoxlanadi. G'oliblar esa rag'batlantiriladi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirish uchun tashkil etilgan qo'shimcha darslar o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida hamkorlikni yanada oshiradi. O'quvchilar mustaqil ishlashni o'rganadilar, o'z fikrini erkin bayon qila olish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. O'quvchilarni faollashtirish uchun ularni doimo turli usullar bilan rag'batlantirib turish lozim. Xatolarni tahlil qilib bo'lgandan keyin o'quvchilarga natijalarining yaxshilanganligini aytib, qaysi mavzular ustida ko'proq ishlashlari kerakligi ta'kidlanib borilishi maqsadga muvofiq.

Biz yoshlar bugungi kundagi ta'limga berilgan alohida e'tibor va imkoniyatlardan foydalanib bilim salohiyatimizni kuchaytirishimiz kerak. Bugungi kun talabiga har jihatdan o'z bilim salohiyatimiz, yuksak tafakkurimiz, iqtidorimiz bilan labbay deb javob bermog'imiz lozim. Qaysi millat vakili bo'lishidan qattiq nazar har bir inson o'z ona tilisiga chuqur hurmatda bo'lishi ham farz ham qarzdir. Shunday ekan o'z ona tilimizni chuqur o'rganishimiz, uni takomillashishida o'z hissamizni qo'shishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Ta'lim sohasini isloh qilish yuzasidan o'tkazgan yig'ilishidagi nutqidan
2. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori, - T.:Sharq NMK, 1997, 32-62- b.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori: O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida. -T., 1995, 24-avgust, 339-son.
4. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalari lug'ati.-T.: Akademiya, 2007, 280-b.
5. Mo'minova O. Imlo xatolar ustida ishlash usullari. -T.\\ Til va adabiyot, 2015, 6-son, 15-b.
6. Yusupova SH. Noan'anaviy dars- davr talabi, -T.: Andijon, 2002, 22-bet.
7. Mahmudov N. Ta'lim bo'g'inlarida ona tili o'qitish mazmunini yangilash muammolari, - T.: Qarshi, 1993, 5-bet.
8. Jalolova L. Yozma nutqni o'stirish metodikasi, -Andijon., 2012.
9. Avliyoqulov N. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari, -T., 2001, 69- bet.
10. Doniyorov B. O'zbek adabiy tili orfoepiyasi va orfografiyasining ayrim dolzarb muommolari. || Til va adabiyot, 2014, 11-son,9-b.